

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING TUTGAN RO'LI VA AHAMIYATI

Sobirov Shohrubbek Naimjon O'g'li

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA FAKULTETI

MMT 75-GURUH TALABASI

Ilmiy rahbar: Sharipova Mashhura

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7582727>

Annotatsiya: Tezisdan raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning zarurligi, ahamiyati va yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotning drayveri, rekreatsion faoliyat, turizm infratuzulmasi va milliy iqtisodni rivojlantirish.

Kirish: Turizm sohasida raqamli iqtisodni rivojlantirish, xizmatlar iste'molchilarga, ham maishiy xo'jaliklarga, ham davlat organlarga, ham faoliyati muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadigan turizm sohasidagi firmalarga ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayondir. Ichki va tashqi muhitning mos omillarini shakllantirishda turizm sohasidagi korxonalar o'z faoliyatini raqamli rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega.

Iqtisodiyotning drayveri bo'lgan turizm va rekreatsion faoliyat doirasida turizm sektorini raqamli rivojlantirish ro'lini aniqlashga yondashuvlarni o'zgartirishni yanada o'rganish uchun biz nafaqat turizm mahsulotini shakllantirish va ilgari surish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatni tushunamiz, shuningdek, turizm infratuzulmasi faoliyati bilan bog'liq boshqa sohalarni ham tushunishimiz darkor. Turizmni rivojlantirish darajasi - mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm sohasida, ayniqsa, innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm rentabelligi va rivojlanish dinamikasi bo'yicha neft va gazni qazib olish va qayta ishlashdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Turizm ko'plab davlatlarning milliy iqtisodiyotlari uchun iqtisodiy faoliyatning eng muhim sohasidir. Bundan tashqari, turizm axborotga boy soha bo'lib, unda axborotni yig'ish, uzatish, tahlil qilish va saqlash sohaning barcha darajalarida qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish turizm faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, unda eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faol qo'llanilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot barcha darajadagi iqtisodiy tizimlarda sodir bo'ladigan barcha biznes-jarayonlarning integratsiyalashuviga asoslanadi, bunda axborot komponentiga alohida ahamiyat beriladi, integratsiyalashgan global tizimda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish

imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya muhiti, axborot tizimlari va xizmatlariga yangi talablar shakllantirilmoqda. Yagona axborot makonini shakllantirish aholining ijtimoiy-iqtisodiy sohaga yo'naltirilgan sifatli va ishonchli axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Turizmni davlat miqyosida rivojlanishi davlat uchun bir qancha foydalar keltiradi. Misol uchun : davlatning tarixiy joylarida rivojlanish bo'ladi va o'sha yerdagi tub aholi YAIM(Yalpi Ichki Mahsulot)ga o'z tovarlari bilan rivolantirishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanish darajasi ko'p jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi va ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga joriy etish darajasi bilan belgilanadi. Texnologiyalarning rivojlanishi tufayli O'zbekiston Respublikasi aholisining 81 foizi, savdo korxonalarining 93 foizi, transport korxonalarining 80 foizi, davlat organlarining 95 foizi Internetdan foydalanadi . Eng muhimi, Internet-texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarda, davlat organlari bilan o'zaro aloqada, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan aloqa qilishda qo'llaniladi. Asosan, turizm sohasidagi barcha korxonalar u yoki bu darajada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Faoliyatning barcha asosiy jarayonlari axborotni qayta ishlashga, shu jumladan,turizmdagi turli bronlash tizimlariga, axborot-qidiruv tizimlariga, hamkorlar, yakuniy foydalanuvchilar bilan axborot-kommunikatsiya aloqalariga asoslanadi. Turizmda zamonaviy reklama texnologiyalarining salmoqli qismi internet texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga binoan 2022-2026 yilgacha bo'lgan davrda "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli ustuvor yo'nalishi 16 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Shuningdek, «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish -maqsadi 10 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi, bular quyidagilar :

1.To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish.

2. Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

3. Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va «Aydar-Arnasoy» ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

4. Samarqandni «Turizm darvozasi»ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022 yilda «Abadiy shahar» tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda, Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.

6. Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish.

7. Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish.

8. Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish.

9. Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash.

10. Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish.

Axborot infratuzilmasini mega darajada shakllantirish bilan Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) kabi tashkilotlar shug'ullanadi. Makro darajada turizm axborot infratuzilmasini rivojlantirish milliy turizm ma'muriyatlari va milliy turizm tashkilotlari zimmasiga yuklangan. Mintaqaviy darajada axborot infratuzilmasi tegishli hududiy turizmni boshqarish organlari tomonidan shakllantiriladi. Turistik tadbirkorlik faoliyatining alohida korxonalari mikro darajani ifodalaydi, ular tomonidan axborot ta'minoti mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Xulosa: Raqamli iqtisodiyotni joriy etish jarayonida turizm biznesini rivojlantirishda ichki omillar ham katta ro'l o'ynaydi. Bu omillar sayyohlik kompaniyalarining mikro darajasida shakllanishi hisoblanadi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi: raqamlashtirish siyosati, kompaniyaning turizm strategiyasi, eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ularning rivojlanishi, kompaniya rahbariyati tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlarining yuqori darajasi, shuningdek, tashkiliy va innovatsiyalarni amalga oshirish va rivojlantirish uchun texnik tayyorgarlik.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab iqtisodiy faoliyat turlarini, jumladan turizmni infratuzilma bilan ta'minlashni sezilarli darajada o'zgartiradi. Raqamli iqtisodiyotning asosi katta hajmdagi axborotni qayta ishlash ekanligini hisobga olsak, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning yuqori texnologiyali tizimi alohida ahamiyatga ega. Potensial sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarni bron qilish, hudud bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot, reytinglarni taqdim etish kabi keng funksiyalarni ta'minlovchi mobil texnologiyalar faol rivojlanishini kutishimiz kerak.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Raximov Z.O., Ibadullaev N.E., Xaitboev R. Turoperouting.// Darslik. - Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 396 bet.
3. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamSIDa o'tkazilgan «Turizmda innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konfrensiyasi. (2020 yil, 3-iyun)